

Maktabgacha ta'lim tashkilotida integratsiyalashgan mashg'ulotlarni tashkil etish va ularning samaradorligi

Daminova Shoxista Farxodovna – JDPU Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yo'nalishlarida masofaviy ta'lim kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integrallashtirilgan mashg'ulotlarni tashkil etish usullari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, integrallashtirilgan mashg'ulot, ertak ijodkorlik, ko'nikma.

Аннотация. В статье показаны методы организации комплексных занятий в дошкольном образовании.

Ключевые слова: дошкольное образование, комплексное обучение, сказочное творчество, умение.

Annotation. The article shows the methods of organizing integrated lessons in preschool education.

Keywords: preschool education, integrated learning, fairy tale creativity, skill.

Bugungi kunda yurtimizda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan mazkur sohadagi islohotlar izchil davom ettirilib, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini hozirgi zamon talablari va standartlari asosida rivojlantirish, ularni rekonstruktsiya va modernizatsiya qilishga qaratilayotgan e'tibor zahirida ham kelajagimiz egalarining hech kimdan kam bo'lmay ulg'ayishlari hamda buyuk ajdodlarga munosib voris bo'lib voyaga etishlarini ta'minlashdek, ezgu maqsad mujassamligi, davlatimiz rahbarining qarori bilan tasdiqlangan "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021-yillarga mo'ljallangan dastur"da keng ko'lamli strategik maqsadlar, muhim vazifalar belgilangani bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, maktabgacha ta'lim-tizimida qayta ishlangan "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari", "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturining e'lon qilinishi, "Maktabgacha ta'lim va tarbiya" qonuni O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi yangilanishi fikrimiz dalilidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlangan, jismonan sog'lom, aqlan etuk va ma'naviy jihatdan shakllangan etib voyaga etkazish dolzarb vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Shu maqsadda, ertaklar orqali bolalar nutqini o'stirish va ularning ma'naviy kamolotini shakllantirish uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari quyidagi kabi integrallashtirilgan mashg'ulotlarni olib borishlari mumkin.

Katta guruhida «Ertaklar yaxshilikka etaklar» mavzusida integrallashtirilgan mashg'ulot Maqsad: ertak mazmuni asosida bolalarda ezgu hislatlarni tarbiyalash hamda insoniy fazilatlarini targ'ib etish bilan ularning axloqiy sifatlariga ijobiy ta'sir etish, bolalar o'rtasida o'zaro do'stona munosabatni shakllantirish va mustaqil ijodiy fikrlashga o'rgatish. Bolalar bilimlarini kengaytirishga yo'naltirilgan interfaol usullar: - muammoli vaziyat, tushuntirish, aqliy hujum metodi, so'z o'yini, M. Montessori metodi.

Guruh: Katta guruh bolalar uchun

Oy mavzusi: G'aroyib olam

Hafta mavzusi: Kitob bilan do‘stlashamiz

Kerakli jihozlar

Guruhdagi bolalar kutubxonasini kuzatish, kitoblar namoyishi.

Kvadrat, uchburchak, doira shakli tushirilgan qog‘ozlar, AKT, turli hil kattalikdagi kitoblar

Mashg‘ulotning borishi

Tashkiliy qism: Salomlashish, kun mavzusida suhbat,

Matematika, syujetli rolli o‘yinlar va drammashtirish, badiiy adabiyot, nutq o‘stirish, jismoniy tarbiya asosida integratsiyalangan

Mashg‘ulot maqsadi.

Kitob bolaga juda ko‘p narsani o‘rgatadi. Ularda bilimlar mujassamlashgan. Kitoblar ko‘p narsani tushunish va anglashga yordam beradi. Nutq va tafakkurni o‘stiradi. Bolalarda kitobga qiziqishni uyg‘otish uchun xar kuni ularga ovoz chiqarib o‘qib bering. O‘zlari kitob tayyorlashga imkon bering. Shu tariqa bola o‘z qiziqishlaridan kelib chiqib mustaqil mavzu tanlaydi. Undan tashqari bu mashg‘ulot kitob qanday muqovalanishi haqida fikr yuritishga undaydi. Tarbiyachi kitob tayyorlashda uning mavzusini xar qanday predmet bilan bog‘lash imkoni bo‘ladi. Masalan: “Men haqimdagi kitob” shaxsiy kamolotni o‘rganishga mos keladi. Chunki bola uni tayyorlash jarayonida orqaga nazar tashlaydi. Avvalga voqealarni eslaydi. Shu tariqa vaqt o‘tishi bilan tabiatda kechadigan o‘zgarishlarni anglab boradi.

Mashg‘ulotning ta‘limiy maqsadi:

Kitob qanday paydo bo‘lganligi va kitob tarixi, uning bola tarbiyasidagi ahamiyoti haqida tushunchalar berish.

Mashg‘ulotning tarbiyaviy maqsadi:

5-6 yoshli katta guruh bolalarida kitobga mehr uyg‘otish, kitobni yirtmay foydalanishga o‘rgatish, kattalarga hurmat, kichiklarga izzatda bo‘lish qolaversa boshqalarni tinglay olish kabi fazilatlarni singdirishga qaratilgan.

Kutilayotgan natija

- Avvalambor kitobga bo‘lgan mehr va qiziqish uyg‘otish.
- Kitobni asrash va kitobning yaqin do‘st ekanligini anglash.
- Kitobga bo‘lgan xurmat hissi, kitob mutoala qilish madaniyati shakllanganligi.
- Tayyor kitoblardan ko‘rgazma tashkil etish
- bolani rasmlari va ertak kitoblar bilan bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish

Tarbiyachi: Assalomu alaykum mening zukko bolalarim! Bugun sizlar bilan kitoblar haqida so‘hbatlashamiz. Suhbatimizni kitob haqidagi Po‘lar Mo‘minning she‘ri bilan boshlamoqchiman.

Hayotimiz oynasi,
Bilimlarning onasi,
Buyumlar durdonasi,
Menga o‘rgatgan odob,
Bu kitobdir, bu kitob.
Mazmunlari xilma-xil
Aqlingga qo‘shgan aql,
Do‘stimdir juna ahil.
Fan yo‘lida nur oftob
Bu kitobdir bu kitob.



Tarbiyachi: - Bolajonlar kitob bizni yorug'likka olib chiqadigan yo'ldir, u zarur vaqtlarda maslahatg'o'ydir, sirdosh do'st. bolalar sizlar qanday kitoblarni ko'rgansiz?

1-bola: Men rasmi kitoblarni ko'rganman

2- bola: Men esa akamning darsliklarini ko'rganman

3- bola: Menga oyim qo'limni tekkizsam ovoz chiqaradigan kitob sovg'a qilganlar

Tarbiyachi: Bolajonlar, kitoblar turli mazmunda, turli shaklda bosib chiqariladi. Kitobning paydo bo'lishi tarixi yozuvning yaratilishi va shakllanish jarayoni bilan bog'liq. Qadimda kishilar tosh, spool, va boshqa materiallarga yozishgan. Yozuv material sifatida papyrus o'simligi ishlatilishi bilan o'rama kitoblar paydo bo'ldi. Bunday kitoblarning uzunligi o'rtacha 10 metr atrofida bo'lib ingichka yumaloq tayoqlarga o'ralgan va mahsus charm yoki yog'och g'iloflarda saqlangan. Siz bunday kitoblarning suratini monitorga qarab ko'rishingiz mumkin.

(Monitorda qadimki kitoblarning surati ko'rsatiladi).

Tarbiyachi: Qog'ozning kashf qilinishi natijasida kitoblar ham paydo bo'ldi. Asta-sekin xattotlik, muqovasozlik kitoblar ajralib chiqdi. Mashxur xattotlarning ishlarini haqiqiy san'at asari deyish mumkin. Siz xattotlar ishlarini ham monitorda ko'rishingiz mumkin.

(Monitorda xattotlar ishlari ko'rsatiladi).

Tarbiyachi: parta ustida turgan kitoblarning bir nechtasini ko'rsatib bolalardan qanday kitoblar borligi haqida so'raydi.

Bolalar javobi:

Ertak kitob, she'r kitob, topishmoqlar kitobi, matematik xisob kitobi deb o'zlari bilgan kitoblarni nomlarni aytishadi.



Tarbiyachi: Bolalar keling sizlar bilan aytamiz hamda aytilgan she'rlarimizga mos harflar yordamida she'rlar yozib o'rnidan turib va stollarni yoniga chiqib turadi.

(Tarbiyachi she'rni aytadi, bolalar uning orqasidan she'rni hamda tarbiyachi bajarayotgan harakatlarni takrorlaydi).

Qirq oyoqjon debdi fil,
Oqshom mehmonga kelgin
To'kib ko'ngilda borin
Yozaylik dil humorin

Qirqoyoq bo'пти debdi:

So'ng yo'l g'amini yebdi,

Yuvibdi qirq oyog'in,

Kiyibdi qirq paypog'in

Shippaklarini artibdi,

Hush ko'rarkan tartibni

Vaqtchi o'tibdi chaqqon,

Yo'lga chiqquncha mehmon

Filboy kutib tolibdi

Oxiri uxlab qolibdi.

Tarbiyachi ushbu mashg'ulotda bolalardagi ba'zini kichik nutqiy nuqsonlarni bartaraf etishga

hamda bolaning she'ni intanatsiya bilan ayta olishiga erisha oladi. Hamda jismoniy mashqlarni ham birdek bajarishi bilan bolaning jismoniy jihatdan ham baquvvat bo'lishiga erishiladi. Jismoniy mashqlar ham she'rlar bilan bajarilsa bolada yana ham qiziqish uyg'onadi va zerikishlar kuzatilmaydi. She'rlar ham jismoniy harakatlar bilan bajarilsa she'r bolaning hotirasida uzoq vaqt saqlanib qolinishiga erishiladi. Bolalarning lug'at boyligiga yangi so'zlar qo'shiladi.

Tarbiyachi: Bolajonlar qaysi biringiz ertak aytishni va tinglashni yoqtirasiz?

Axmad: Bog'cha opa men ertak aytishni juda yoqtiraman, ayniqsa hayvonlar qatnashgan ertaklarni juda yaxshi aytaman, uyda ukalarim va singillarimga aytib beraman.

Tarbiyachi: Barakkala Axmad

Shukronaxon: Bog'cha opa men esa ertakni tinglashni yoqtiraman, ayniqsa siz ertak aytsangiz maroq bilan tinglayman.

Tarbiyachi: Juda soz, unday bo'lsa hozir siz bilan biz ajoyib ertak tinglaymiz.

Tarbiyachi bu mashg'ulotni boshlashdan avval har bir bolani oldiga geometrik figuralardan doira, to'rtburchak va uchburchak shakllarini tayyorlab qo'yadi.

Tarbiyachi: Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bitta katta yam-yashil o'rmonda barcha hayvonlar ahil-inoqlikda yashar ekanlar. Ularni har bir kuni o'yin – kulgular bilan shod hurramlikda o'tar ekan, shunday kunlarning birida bo'ri, ayiq hamda quyon baxslashib qolishibdi.

Bo'ri o'zini eng zo'r hayvon ekanligini va uning velosipedi hammanikidan tez yurishini aytib maqtanibdi, uni eshitib turgan ayiq bo'rini ustidan xo-xo-xolab kulibdi va shunday debdi sen mendek kuchli ham emassan va velosipeding ham menikidek tez yurar emas shunday ekan senga kim qo'yibdi maqtanishni debdi va o'rmondagi eng kuchli hayvon bu menman, deb kerilibdi. Ularni jimgina tinglab o'tirgan quyon ham suhbatga qo'shilibdi va u ham maqtanibdi. Men sizdek kuchli va dovyurak bo'lmasam ham, lekin velosipedim tez yuradi debdi quyon. Quyoni gaplarini eshitib turgan ayiq va bo'ri xo-xo-xolab kulib yuborishibdi. Ularning uchalasi ham baxlashib ketishibdi. Ularni uzoqdan kuzatib turgan tulki kelinglar yaxshisi sizlar o'zingizni tez yurar velosipedingizda poyga o'ynangiz, kim marraga birinchi yetib kelsa o'shani velosipedi eng yaxshisi bo'ladi debdi. Hayvonlarning ham baxslari tugab ular rozi bo'lishibdi va ularning har biri o'z velosipedlari bilan poygada ishtirok etishadigan bo'lishibdi. Hammalari start chizig'i yoniga kelishibdi.

Ayiqni velosipedini g'ildiragi-to'rtburchak;

Bo'rini velosipedini g'ildiragi-uchburchak;

Quyoni velosipedini g'ildiragi-doira shakllardan iborat ekan.

(Tarbiyachi har bir shakl bilan tanishtirganida ularni qo'lga oladi va bolalarga ko'rsatadi).

Keyin ular poygani boshlashibdi. Ayiq o'zining to'rtburchak shakldagi g'ildirakli velosipedi bilan, bo'ri esa o'zining uchburchak shakldagi g'ildirakli velosipedi bilan, quyon esa o'zining doira shakldagi g'ildirakli velosipedi bilan poygani boshlashibdi.

Tarbiyachi: Bolalar qani aytingchi kimni velosipedi sizningcha poygada g'olib bo'ladi.

Aslzoda: Ayiqniki poygada g'olib bo'ladi.

Tarbiyachi: Nima uchun ayiqniki?

Aslzoda: Chunki ayiq o'rmondagi eng kuchli hayvonda

Ibrohim: Yo'q ayiq g'olib bo'lmaydi, quyon g'olib bo'ladi sababi quyoni velosipedini g'ildiragi-doirali. Doirali g'ildirak uchburchak va to'rtburchak g'ildirakdan tez yuradi.

Tarbiyachi: Ofarin, Ibrohim sen juda to'g'ri topding.

Haqiqatdan ham doira shaklidagi g'ildirak tez yuradi shuning uchun ham biz foydalanadigan

velosipedlarimizning g'ildiragi doiralida.

Shunday qilib quyonchani velosipedi birinchi bo'lib marraga yetib kelibdi va u g'olib bo'libdi. Juda zo'rmiz deya maqtanishgan ayiqvov va bo'rivoylar uyalib qolishibdi. Endi hech qachon ular maqtanishmaslikka va'da berishibdi.

Tarbiyachi: keling bolalar shu ertakni endi sizlar bilan birgalikda qaytadan takrorlaymiz. (tarbiyachi bolalarni qiziqishlari hamda xoxishlarini inobatga olgan holda ularni rollarga taqsimlaydi va ularga to'rtburchak, uchburchak va doirali velosipedlarni rasmlarini beradi, rollariga taqsimlangan bolalar ushbu rasmlar bilan ertakni qayta hikoya qilib beradi. Qolgan bolalar esa ertakdagi velosipedlarni rasmlarini chizadilar. Velosipedlarni rasmlarini chizishda bolani xoxishlari muhim hisoblanadi).

Masalan; Ibrohim akvarel bo'yoqdan foydalanib uchburchak shakldagi velosiped rasmini, Shukronaxon esa rangli qalamdan foydalanib doira shakldagi velosiped rasmini Axmad esa markerlardan foydalanib uchburchak shakldagi g'ildirakli velosipedni rasmini chizishi mumkin. Bunday mashg'ulotlarda bolaga erkinlik berish tavsiya etiladi va bu albatta ijobiy samara beradi.

Tarbiyachi: Bolalar sizlar bilan rasmlardan va matndan foydalanib hikoya tuzishni o'rganamiz.

Ertalab Xadichaxon sevimli bog'chasiga borish uchun



chiqdi, va dadasi



shahar bo'ylab ketar ekan, turli tuman



bilan

ko'rdi, va yana shahar markazida katta va chiroyli ko'rib u yerga kirish uchun dadasidan ruxsat so'radi.

Dadasi bilan kutubxonaga kirishdi. U yerda juda ko'p

ko'rishdi. Ular kutubxonaga kirishganida

yurgan bolalarga ko'zlari tushdi.



Shunda kutubxonachi opa bolalarni to'xtatib, ularga kutubxonada yugurmaslikni, kitoblarga zarar yetkazmaslikni, kitoblarni yertmaslikni, yertilgan kitoblarni yelimplab ularni muqovalash kerakligi haqida tushuncha berdi. Ularni kuzatib turgan Xadichaxon dadasiga o'zi



yoqtirgan kitobini olib berishini so'radi. Dadasi



unga o'zi

hoxlagan kitobni olib berib yo'llarida davom etishdi.

Kechqurun

uyqa qaytishganida Xadichaxon oyisiga kutubxonada

bo'lgan

voqealarni aytib berdi. U olgan kitobini oyisiga ko'rsatib bu kitobni yitmaslikni, chizmaslik kerakligini uni asrab-avaylash kerakligini aytdi.

(Bunda tarbiyachi keltirilgan matn va rasmlar asosida yangi hikoyani o'qib beradi va rasmlarini ko'rsatadi. Tarbiyachini eshitgan bolalar esa shu rasmi matnni qayta hikoya qilib beradi. Bu matnda rasmlar ham bo'lganligi bolaning diqqatini o'ziga tortadi. Bola rasmda nimani ko'rayotgan bo'lsa shuni hikoyaga qo'shib aytadi. Ba'zi bolalar hayvonlarni, qushlarni, hashorotlarni bir-biridan ajrata olmasdan ularning nomlarini aralashtirib yuborishi mumkin. Shunday holatlarda tarbiyachidan topqirlik va sezgirlik talab etiladi. Bolaning shu xaxoti xato va kamchiliklarini to'g'rlab ketishi lozim bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy ko'nikmalarni o'stirish va mukammallashtirish uchun ularni eshitish, xotirasini mustaxkamlovchi aniq tasavvur ettiruvchi so'zlardan foydalanish, bolalarning ijodiy firklashini oshiruvchi keng ko'lamli amaliy usullar zarur hisoblanadi. Ushbu usul

yordamida tarbiyalanuvchilar tarbiyachining nutqini eshitish va tushunishni, boshqa bolalar yonida soʻzlab berishni, bir – birini tinglashni oʻrganadilar, qolaversa bu usul bilan tarbiyachi bolalarning fikrlash tezligini va zukkoligini baholaydi. Hamda tarbiyachiga 5-6 yoshli bolaning nutq oʻstirish mashgʻulotlarida egallayotgan bilimlarini monitoringini belgilash imkoniyatini ham beradi).

Xulosa qilib aytganda bolalarga kitob bilan doʻstlashish kerakligini, kitob bizning doʻstimiz ekanligi haqida tushuncha berish.

Yakuniy qism

Mashgʻulotda faol qatnashgan bolalar ragʻbatlantiriladi, qolgan bolalar xam keyingi mashgʻulotda faol qatnashishi aytib oʻtiladi.

Xulosa, bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlangan, jismonan sogʻlom, aqlan, etuk va maʼnaviy jihatdan shakllangan qilib voyaga etkazish dolzarb vazifalardan biri boʻlib kelmoqda. Muxtasar aytganda, maktabgacha taʼlim uzluksiz taʼlimning boshlangʻich qismi hisoblanadi. U bolaning sogʻlom va rivojlangan shaxs boʻlib shakllanishini taʼminlab, oʻqishga boʻlgan ishtiyoqini uygʻotadi, tizimli oʻqitishga tayyorlab boradi. Shunday ekan, bu tizim faoliyatini yanada kuchaytirish, maktabgacha taʼlim muassasalarida har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga maktabgacha yoshdagi bolalarni keng jalb etish farzandlarimizning barkamol va etuk shaxs boʻlib shakllanishida muhim oʻrin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.2017-2021 yillarda Maktabgacha taʼlim tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari toʻgʻrisidagi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29- dekabr. PQ-2707-sonli Qarori.

2.“Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha taʼlim vazirligi toʻgʻrisidagi nizomi hamda Maktabgacha taʼlim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ustavini tasdiqlash haqida”gi qarori. 2017- yil 21-noyabr. 929-son qarori. Ilk qadam. – Toshkent, 2018.

3. Norboyevic, S. B. (2024). USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 93-97.

4. Farxodovna, D. S. (2023). BOLA SHAXSIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY MENTALITETNING OʻRNI. TAʼLIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(2), 31-35.